

## О`ЗBEKISTONDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOTLAR TUZILISHINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Xamrayev Elyorbek Erkinovich*

*O`zbekiston respublikasi Bank moliya akademiyas tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi birlashgan korxonalar faoliyati to'g'risidagi axborotlarni taqdim etish uchun konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzish, taqdim etishning mohiyati, ahamiyati va maqsadi hamda uslubiyoti masalalari mazkur maqolada ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** konsolidatsiya, birlashish, guruhdagi korxonalar, bosh korxonalar, ta'sir darajasi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

### KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'z maqsadlariga yetishishlari uchun birgalikda xamkorlik qilish va zarurat bo'lsa birlashish uchun qarorlar qabul qilishlariga to'g'ri keladi. Korxonalarning birgalikdagi faoliyatlariga to'g'ri baho berish uchun ularning faoliyati natijalarini bayon etadigan moliyaviy hisobotlarni birlashtirish, zarurati kelib chiqadi. Halqaro amaliyotda bunday jarayonlarni ko'plab kuzatish mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan biznes sub'ektlari ham bunday hodisalarga duch kelishlari mumkin. Bu esa yagona xo'jalik yurituvchi sub'ekt konsepsiyasining qo'llanilishiga olib keladi. Shuning uchun konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzish va ularni taqdim etish yuzasidan o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

### ASOSIY QISM

Konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzish va taqdim etishdan quyidagi maqsadlar ko'zlangan:

- bosh kompaniya va uning sho'ba korxonalari to'g'risidagi moliyaviy axborotni ular xuddi yagona korxonalar bo'lgani kabi taqdim etish;
- guruh tomonidan nazorat qilinadigan iqtisodiy resurslarni resurslardan foydalangan holda olingan natijalarni aks ettirish.
- guruh majburiyatlarini aks ettirish;

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish quyidagi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi:

- MHXA (IFRS) 3 Kompaniyalarni birlashtirish;
- MHXA (IFRS) 10 Umumlashgan moliyaviy hisobot;

- МХХА (IAS) 28 Uyushgan kompaniyalar va qo'shma korxonalariga investitsiyalar.

Guruh tarkibiga kiruvchi har bir korxonaga moliyaviy hisobni mustaqil yuritadi va o'zining alohida moliyaviy hisobotini odatdagi tartibda tuzadi va taqdim etadi. Bosh korxonaga konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini guruh tarkibiga kiruvchi korxonalarining alohida moliyaviy hisobotlari asosida tayyorlaydi.

Bosh korxonaning moliyaviy holat to'g'risida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotida aks ettirilgan sho'ba korxonalar aksiyalariga investitsiya, sho'ba korxonaning sof aktivlari va ushbu investitsiyalar va sho'ba korxonasining xususiy kapitalining u xarid qilingan sanaga qiymati o'rtasidagi farqni ifodalovchi gudvil bilan almashtiriladi.

Shunday qilib, moliyaviy holat to'g'risida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- guruhning sof aktivlari;
- guruhning aksionerlik kapitali har doim bosh korxonaning aksionerlik kapitaliga teng;
- guruhning taqsimlanmagan foydasi, u bosh korxonaning taqsimlanmagan foydasiga va sho'ba korxonasini taqsimlanmagan foydasidagi guruh ulushining u xarid qilingan sanadagi holati bo'yicha teng.

Ba'zida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni turli ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarni qo'shish yo'li bilan olingan qandaydir yakuniy hisobot sifatida qabul qiladilar. Biroq bu unchalik to'g'ri emas, chunki uning tayyorlanish tamoyili arifmetik operatsiyalarning bajarilishi bilan emas, balki biznesning iqtisodiy mohiyati bilan aniqlanadi. Ushbu jarayonga ehtiyoj biznesning o'sishi, bir qancha korxonalarining qo'shib ketishi yoki yutib yuborilishi natijasi sifatida yirik biznes-tuzilmalarning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot biznesning shaffofligidan dalolat berib, bu potensial investorlar uchun ijobiy nufuzni yaratish va IPO talablariga mos kelish uchun zarur. Shu bilan bir qatorda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o'z ichiga turli faoliyat yo'nalishiga ega bo'lgan turli o'lchamdagi korxonalarini olgan, murakkab tuzilmali korxonalar boshqaruv bo'g'ini uchun instrument (dastak) bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, uning olinishi boshqaruvchilarga o'z ishida dolzarb va to'laqonli ma'lumotlar bilan ishlash imkonini beradi, investorlar va aksionerlarga esa moliyaviy holat nuqtai-nazaridan —murakkab korxonalaridagi ishlar haqida —hikoya qilib beradi. Oxirgilar uchun o'zida har bir korxonadan olingan, yoyilgan hisobotlar to'plami bo'yicha korxonalar guruhini[1] yoki xoldingni ifodalovchi kompaniyaning ishlarini aniqlash murakkab bo'lgan bo'lar edi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Ulushli ishtirok etish uslubida konsolidatsiyalashda nazorat ostidagi

korxonadan dividendlar bosh korxonaga tasarrufidagi foydaning bir qismi bilan almashtiriladi, bosh korxonaga investitsiyalarining qiymati qo'shma yoki assotsiatsiyalashgan korxonaning sof aktivlaridagi ulush bilan almashtiriladi, shuningdek qo'l ostidagi korxonalarining ma'lumotlari yakuniy hisobotda moddalar bo'yicha umumlashtirilmaydi. Yuqorida bayon etilgan ikki uslub o'zaro o'xshash: ularning istalgan bittasidan foydalanilganda bosh korxonaga va nazorat qilinuvchi korxonaga uchun yagona hisob siyosatidan foydalanish lozim, shuningdek hisobotni tuzishning yagona sanasi tanlangan bo'lishi lozim.

Operatsiyalarni yozish yo'li bilan umumlashtirishda investitsiyalar tannarxi bo'yicha aks ettiriladi.

MHXS va BHMS o'rtasidagi farqlar:

1. Soliq bazasini aniqlashga turlicha yondoshuvlar;
2. BHMSda yagona schotlar rejasini qo'llaniladi, MHXS da yagona schotlar rejasini bo'lmaydi;
3. MHXSga muvofiq, korxonaning o'zi hisobot davrini o'rnatishi mumkin;
4. BHMSda ma'lumotlarni aks ettirish uchun asos bo'lib boshlang'ich hujjatlar xizmat qiladi, MHXSda esa – kasbiy mulohazalar;
5. MHXSda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'proq ko'rsatkichlar soniga ega.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. MSFO (xalqaro moliyaviy hisobot). <https://www.1cashflaw.ru/standarttyosti-mfo>.
2. Ismanov I.N., Matkarimov D. O'zbekiston Respublikasida katta moliyaviy hisobotlarni tayyorlash muammolari. Magistrantlar va doktorantlarni ilmiy nashrlarning jurnali. № 9, 2012, 5-8 p.
3. Toshmamatov N., Ismanov I.N., Xojiev A.S., buxgalteriya predmetining ba'zi masalalari haqida. Zamonaviy fan va ta'lim muammolari. № 12-2, 2019, 88-93 p.
4. Ismanov I.N., Muydinov E. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida daromadni tan olishga yangicha yondashuv. MOLIIYA VA BANK ISHI. №5, 2020, 86-93 bet.
5. Rashidov Dilovar Najmiddinovich, & Xolboev Yigitali Avganovich (2022). KORXONA VA TASHKILOTLARDA IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ SHAXSLAR UCHUN ISH O'RINLARINI YO'NALISHLAR KESIMIDA ZAXIRALASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. Transformatsiya modeley korporativnogo upravleniya v usloviyax sifrovoy ekonomiki, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78
6. Ismanov I.N. Buxgalteriya hisobi tizimining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga transformatsiyasining zaruriyati. Iqtisod va moliya. №3, 2017, 38-44